

## AGRESSIV XULQ- ATVOR

*Qo'qon Universiteti Ta'lif fakulteti  
Pedagogika va Psixologiya o'qituvchisi  
Olimov Saydullo  
Qo'qon Universiteti talabasi  
G'ofurjonova Umida  
+998889573557  
umidagofurjonova96@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agressiv xulq-atvor , agressiyani tadqiq qilgan jahon psixologlarining nazaryalari, tajriba natijalari va agressiyani keltirib chiqaruvchi omillar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Agressiya, shaxs, frustratsiya, affekt, nafrat, aversiv holat, stressogen, stress.

**Аннотация:** В статье рассматриваются агрессивное поведение, теории мировых психологов, изучавших агрессию, экспериментальные результаты и факторы, вызывающие агрессию.

**Ключевые слова:** Агрессия, личность, фрустрация, аффект, отвращение, аверсивное состояние, стрессоген, стресс.

**Abstract:** This article discusses the theories of world psychologists who have studied aggressive behavior, aggression, experimental results, and factors that cause aggression.

**Keywords:** Aggression, personality, frustration, affect, hatred, aversive state, stressogen, stress.

### Kirish

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega. Ko‘pchilik o‘zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o‘zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo‘llari paydo bo‘lishiga olib keladi. Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. “Agressiya” tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug‘diradi, chunki bu atama ko‘plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. . Odamlar biron kimsani agressiv

shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi yoki badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan yoki o'z g'oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson kabi ta'riflarni keltirishlari mumkin. Agressiya (lotincha aggressiō - hujum) - bu odamlarning birgalikda yashashi me'yorlariga zid bo'lgan, hujum ob'ektlariga zarar yetkazadigan, odamlarga jismoniy, ma'naviy zarar yetkazadigan yoki ularga psixologik noqulaylik tug'diradigan motivatsiyalangan buzg'unchi xatti-harakatlar. Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U. Makdugoll, Z. Freyd, G. Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi» degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr- mulohazalar XX asr boshlarida yuzaga keldi. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya bo'lib, unda agressiyaning sababi frustratsiya nazariyasi bilan bog'liq ravishda tahlil etilgan. Unga ko'ra agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunday qarash birinchi marta D. Dollard tomonidan ilgari surilgan. Ammo ushbu nuqtai nazar amaliyotda o'z tasdig'ini topmadni. Agressiv xulq-atvor xususidagi ikkinchi nuqtai nazar L. Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi:

1. Subyektning o'z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi.
2. Frustratsiyaning mavjudligi.
3. Affekt yoki stress tipidagi emotsiyal qo'zg'alishning kuchliligi.

D.Bassning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy – verbal, faol – sust va to'g'ri egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko'plab agressiv harakatlarni tushuntirish mumkin. [1.Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022]

R. Kratchfield va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar. Birinchisi, xulq-atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi va unga ko'ra «Agressiya kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir». Ikkinchisi, odamning ichki niyatlari bilan bog'liq bo'lib, insonni harakatga undovchi kuchlarni o'rganish bilan anglash mumkin bo'lган holatlar bilan mushtarakdir, ya'ni, «Agressiya boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyani jonli olamning yashash uchun kurash bilan bog'liq uzviy tavsifsi deb hisoblaydilar. Chuqur psixologik yondashuvlar tajovuzning instinctiv xususiyatini tasdiqlaydi. Bunday holda,

tajovuzkorlik har qanday shaxsning tug'ma va ajralmas mulki bo'lib tuyuladi. Bu yondashuvning eng ko'zga ko'ringan vakillari psixoanalitik va etologik maktablardir (K.Yung, Z.Freyd, G.Xartman, E.Kris, K.Lorens, Ardrey, Morris). Psixoanaliz vakillari tajovuzni odamlarda "o'lim instinkti"ning namoyon bo'lishi bilan bog'laydilar (Tanatos, soya). K. Lorenz "odamlardagi tajovuzkorlik, xuddi boshqa yuqori umurtqali hayvonlardagi kabi spontan instinktiv istakdir" deb hisoblaydi. Qanday holatlarda biz agressiyani namoyon qilamiz? Agressiv reaksiyalar mexanizmini ishga soladigan quyidagi omillar mavjud: aversiv holatlar, hayajon, ommaviy madaniyat va guruhiy kontekst. . Aversiv holatlar: og`riq, chidab bo'lmas jazirama issiq, hujumkor xulq, tiqilinch. Og`riq-zamonaviy etika tamoyillari tadqiqot maqsadlarida og`riq stimulidan foydalanishni qat'iy ravishda cheklaydi. Tadqiqotchi Natan Ezrin kalamushlarning panjasiga og`riq beruvchi elektr zaryadlarini beradigan elektrodlarni o'rnatgan. Tadqiqotdan maqsad, zaryad berib, kalamushlar bir-birlariga yaqinlashishlari bilan tokni o'chirib, ijobiy hamkorlikni mustahkamlashni ko'zda tutish edi. Lekin tok berilishi bilan kalamushlar darg'azab holatda bir-birlariga tashlanishdi. Xuddi shu holatni tulki, xo'roz, yenot, timsoh, daryo qisqichbaqasi kabi ko'plab turlarda ham kuzatish mumkin. Jismoniy og`riqdan tashqari "psixologik og`riq"ni - masalan, o'rgatilgan kaptarlar tumshug'i bilan maxsus diskni cho'qib mukofot uchun don olishga o'rgatib, uni ololmaganlarida paydo bo'ladigan hujumkorlik, urushqoqlik ko'rinishida kuzatish mumkin. "Psixologik og`riq" - biz frustratsiya deb ataydigan holatning o'zidir. Og`riq odamlarda ham agressiyani kuchaytiradi. Har birimiz boshimiz qattiq og'riganda, yoki oyog'imizning katta barmog'ini urib olganimizda shunga o'xhash reaksiyani eslashimiz mumkin. Leonard Berkovis Viskonsin universiteti talabalarida shunday tajriba o'tkazgan. Talabalar qo'llarini iliq suvga yoki o'ta sovuq suvga solib turishlari kerak bo'lgan. Keyinchalik qo'llarini sovuq suvga solib turgan talabalar asta-sekin o'zlarida asabiylik orta borganligini, yoqimsiz tovush chiqarayotgan boshqa tekshiriluvchini so'kib yuborishga ham tayyor bo'lganliklarini eslashgan. Xulosa shunday bo'lganki, aversiv holatlar frustratsiyaga nisbatan agressiyani ishga soluvchi samaraliroq mexanizm hisoblanar ekan. Har qanday aversiv hodisa, u amalga oshmagan umid bo'ladimi, shaxsiy haqorat yoki jismoniy og`riq bo'ladimi, emotsiyal portlashga sabab bo'lishi mumkin. Hattoki azobli depressiv holat ham dushmanlik agressiv xulqining paydo bo'lish ehtimolini orttiradi. Jazirama issiq. O'z vaqtida Gippokrat Gretsiyadagi yuqori madaniyatni hozirgi Germaniya va Shvetsiyadagi yovvoyilik axloqi bilan taqqoslab, buning sababi yevropaning keskin iqlimida deb bilgan edi. Yoqimsiz hid, tamaki tutuni, havoning ifloslanishi – agressiv xulqqa sabab bo'lishi mumkin. Laboratoriyyada normal va issiq, dim xonalarda so'rovnama to'ldirgan tekshiriluvchilar, issiq, dim xonada ularda toliqish, agressiv holatlar paydo bo'lganligini, har qanday begona odamning paydo bo'lishi ularning g`ashiga tekkanligini aytishgan. Tekshirishlar shuningdek, jazirama issiq

qasoskorlikning namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin, degan xulosani beradi. Hayotda jaziramaning agressiv xulqqa sabab bo'lishini quyidagi misollardan ko'rish mumkin: "Amerikaning 79 ta shahrida 1967 - 1971 yillar oraliqidagi ommaviy tartibsizliklar jazirama kunlarda sodir bo'lgan. "Xyuston (Texas) da jazirama havoda zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar sodir qilinish ehtimoli ortadi. "G'arbiy Yevropada zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar faqat issiq kundagining emas, yilning issiq davrlarida ham ko'proq sodir qilinadi. Kreyg Anderson, Bred Bushmen va Ralpf Grumlar XXI asrning o'rtalarida havo temperaturasining ortishi AQShda har yili 115 000 og'ir jinoyatlar sodir qilinishiga sabab bo'ladi, deb hisoblaydilar. Temperatura va agressivlik o'rtasidagi bevosita aloqani tasdiqlash qiyin bo'lsa ham, yuqori temperatura hayajonga sabab bo'lishi aniq, odamlar jaziramada asabiyroq bo'ladilar. Jazirama issiq agressiv fikr va hissiyotga sabab bo'ladi. Hujumkor xulq boshqa odamning hujumkor xulqi, masalan, jismoniy og'riq yetkazish yoki haqorat agressiyaning eng kuchli qo'zgovchilari hisoblanadi. Tadqiqotchilar, Styuart Teylor, Harold Dengerink, Hobuki va Toshxiro Kamberalar atayin haqoratlash va og'riq yetkazish qasd olish niyatidagi javob reaksiyasiga sabab bo'lganligini o'rganishgan. Tiqilinch - bitta odamga to'g'ri keladigan fazoning yetarli emasligini sub'yektiv his qilish demakdir. Tiqilinch stressogen omil hisoblanadi. Avtobusdag'i ur-yiqit, avtomobil yo'lidagi probkada imillab yurish, talabalar yotoqxonasidagi o'rinalar tiqilinchligi vaziyatning nazarat qilib bo'lmasligi hissining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Qafasdag'i kalamushlar, oroldagi bug'ular va odamlar o'rtasida farq bo'lsa ham, har holda aholi ko'p yashaydigan shaharlarda jinoyat ko'proq sodir bo'ladi va odamlar bunday shaharlarda ko'proq distress – kuchli psixik zo'riqishni his qildilar. Hulosa qilib aytadigan bo`lsak agressiyaga oid ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda ham jadallik bilan olib borilmoqda. [3.<https://>].

Chunki inson ruhiyatining chegaralarini anglab yetish fan oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Agressiv xulq-atvor paydo bo'lishida ko'pgina omillar ishtirok etadi, shu bilan birga individual va yosh xususiyatlari, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar. Masalan, agressivlikni quyidagi sharoitlar ta'minlashi mumkin, shovqin, jazira, tiqislik, ekologik muammolar, ob-havo sharoitlari va h. Ushbu muammoning ko'pgina tadqiqotchilarining fikiicha, shaxsnинг agressiv xulq-atvorining shakllanishida asosiy rolni bevosita uning atrofidagi ijtimoiy muhit o'ynaydi. Agressiv xulq-atvorning xarakteri ko'pgina holatlarda insonning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Yoshning har bir bosqichi rivojlanishning maxsus alohida vaziyatiga ega va shaxsga m a'lum talablar qo'yadi. Yoshning talablariga adaptatsiya odatda agressiv xuiq-atvoming turli namoyishlari bilan kuzatiladi. Ma'lum bo'lishicha kichik yoshdagi bolalar agar tez-tez, baland ovozda va biror narsa talab qilib yig'lasalar, ularning tabassum qilishi kuzatilmasa, aloqa qilmasa shu orqali agressivlik xususiyatlarini namoyon etadilar. Psichoanalitik tadqiqotlar go'daklarning

talablari inobatga olinmayotganda kechayotgan katta

g‘azab miqdori haqida ma’lum qilishini ta’kidlashadi. Shu bilan birga shunday fakt ma’lumki, kichik bolalarda ona muhabbatini saqlab qolish uchun, yangi tug‘ilgan ukasi yoki singlisiga nisbatan vahshiylik namoyish etishga moyillik kuzatiladi. Agressiv xulq-atvorning o‘smir yoshidagi maxsus xususiyati - kattalar avtoritetining qo’llashi fonida tengdoshlari guruhiga bog’langanligi. Ushbu yoshda agressiv bo’lish “kuchli bo’lish yoki kuchli ko‘rinish” ma’nosini anglatadi. Har qanday o‘smir guruhi, lider tomonidan qo’llab-quvvatlaydigan, o’zining afsonalari va udumlariga ega. Masalan, a’zolikka qabul qilish udumlari keng tarqalgan (yoki yangi kelganlarni sinovdan o’tkazish). Ko‘zga tashlanadigan guruh “uniformasi” (umuman o’smirlar modasi ham) udumlar xarakteriga ega. Udumlar guruhga tegishlilik hissiyotini kuchaytiradilar va o ‘smirlarga xavfsizlik hissiyotini beradilar, biroq, afsonalar ularning hayot faoliyatining asosi bo’lib qoladi. Afsonalar guruhdagi ichki guruh va tashqi agressiyasini oqlash uchun keng qo’llaniladi. Masalan, guruh a’zosi bo’lmaganlarga nisbatan har qanday agressiya quyidagi gaplar bilan oqlanadi - “ular bizni sotdilar... biz o‘zimizni himoya qilishimiz kerak...biz hammani bizni hurmat qilishga majbur qilishimiz kerak”. Guruh afsonasi bilan ruhlantirilgan zo’ravonlik o’smirlarda o‘z kuchini tasdiqlash, qahramonlik va guruhga sodiqlik shaklida kechadi. Umuman olganda, bola va o‘smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o‘zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrofdagilarning noto‘g‘ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo’ravonlik - e’tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa huquqlarni bersa, bolalarda va o’smirlarda kuch ustivorligiga asoslangan xulq-atvor shakllanishi mumkin, bu esa katta insonlarning ham ijtimoiy faoliyat asosini tashkil etishi mumkin (masalan, kriminal guruhlarda). Atrofdagilarning agressiyani kuch bilan bosishga intilishi kutilgan natijaga emas, balki qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin.[2.<https://>]

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki , agressiv xulq-atvor odatda ichki muammolar, stress va hissiy boshqaruvning yetishmasligidan kelib chiqadi. Bunday xulqni yengish uchun esa shaxsiy rivojlanish va hissiy salomatlikka e’tibor qaratish muhimdir.

Shunday qilib, agressivlikka qarshi kurash keng qamrovli narsalarni talab qiladi . Bunga ta’lim - tarbiya, sog’lom ijtimoiy muhit va shaxsiy mas’uliyatni kuzatish mumkin . Agar har bir inson agressivlikning qo’llab- quvvatlanishidan himoyalanish o‘z hissasini qo’shishsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlash mumkin bo’ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar va internet manbalari:

1. Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022 SHAXS RUHIYATIDAGI AGRESSIV HULQ-ATVORNING NAZARIY ASOSLARI Axmadaliyeva Shaxnoza Maxamadxonifovna Andijon tuman 16-maktab amaliyotchi psixologi .

2. [https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/10/NamDU-ARM-9716-Xulqi\\_ogishni\\_bolalar\\_psixologiyasi.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/10/NamDU-ARM-9716-Xulqi_ogishni_bolalar_psixologiyasi.pdf)
3. <https://www.samdu.uz/uz/news/21966>.
4. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O ‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 245-248.
5. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.
6. Soxobjonovich, O. S. (2024). FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI BOSHQARISH VA BIRINCHI PSIXOLIGIK YORDAM. Analysis of International Sciences, 2(1), 111-115.
7. Soxobjonovich, O. S. (2024). BOSHQARUV SOXASI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI. Kokand University Research Base, 343-347.